



TURKIY TIL MANBALARI TILIDA “ODAMGARCHILIK” KONSEPTOSFERASINING LINGVOMADANIY TAHLILI

Abdujabbarova Feruza Abdunazarovna
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti
Tillar va maktabgacha ta’lim kafedrasida
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya Ushbu maqolada XI-XII asr turkiy til manbalari asosida “odamgarchilik” konseptosferasi lingvomadaniy jihatdan tahlil qilinadi. Konseptosfera tushunchasi, uning turkiy tildagi aks etishi va madaniy kontekstdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Tilshunoslikda konsept va konseptosfera tushunchalari Ye.S. Kubryakova, V.I. Karasik, V.A. Maslova, A. Vejbitskaya, Ye.V. Vasileka kabi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan bo‘lib, o‘zbek tilshunosligida ham O‘. Yusupov, A. Nurmonov, Sh. Safarov, N. Mahmudov, D.U. Ashurova va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

D.S. Lixachyov tomonidan ta’kidlanganidek, konseptosfera inson fikrlash doirasi bo‘lib, mental tasvirlardan iborat konseptlarning majmuidan iborat ekanligi ko‘rsatilgan.

Maqolada “odamgarchilik” konseptosferasi turkiy manbalarda qanday aks etgani tahlil qilinadi. “Odamgarchilik” – insonning axloqiy fazilatlarini, insoniylik me’yorlari va qadriyatlarini o‘z ichiga oluvchi konsept sifatida qaraladi. Bu tushuncha qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda qanday aks etgani, uning lingvistik va madaniy jihatlari yoritiladi.

“Qutadg‘u bilig” asarining turli baytlari asosida “odamgarchilik” tushunchasi tahlil qilinadi. Shoir odamgarchilikni axloqiy mezon sifatida belgilab, inson o‘z insoniyligini saqlash uchun muayyan fazilatlarni o‘zida shakllantirishi kerakligini ta’kidlaydi.

Shuningdek, maqolada qadimgi turkiy manbalar, jumladan, DTS (Древнетюркский словарь) va “Devonu Lug‘atit-Turk” asarlari tahlil qilinadi. DTSda “odamgarchilik” so‘zining izohi “kishilik” shaklida keltirilgan va bu tushuncha insoniy axloqiy fazilatlarni ifodalovchi asosiy tushunchalardan biri sifatida talqin etilgan. “Devon”da esa ushbu so‘z keltirilmagan bo‘lsa-da, boshqa manbalardagi izohlar orqali turkiy madaniyatda odamgarchilikning qanchalik muhim tushuncha ekanligi tushuntiriladi, odamgarchilik bilan bog‘liq asosiy tushunchalar sanab o‘tiladi: mehr-oqibat, insof, adolat, halollik, muruvvat, saxovat, himmat, sabr, kamtarlik, bilim va zakovat. Bu tushunchalar “odamgarchilik” konseptosferasining tarkibiy qismlari bo‘lib, ular orqali insoniylik me’yorlari belgilangan.

Kalit so‘zlar: konsept, konseptosfera, odamgarchilik, lingvomadaniy tahlil, axloqiy qadriyatlar, adolat, halollik, muruvvat, saxovat, madaniy meros, til va madaniyat

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТОСФЕРЫ «ЧЕЛОВЕЧНОСТЬ» В ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВЫХ ИСТОЧНИКАХ

Аннотация В данной статье проводится лингвокультурный анализ концептосферы «человечность» на основе тюркских языковых источников XI–XII веков. Рассматриваются понятие концептосферы, ее отражение в тюркском языке и культурный контекст. Понятия концепта и концептосферы широко исследовались такими учеными, как Е.С. Кубрякова, В.И. Карасик, В.А. Маслова, А. Вежбицкая, Е.В. Василек. В узбекском языкознании эти вопросы изучались О. Юсуповым, А. Нурмоновым, Ш. Сафаровым, Н. Махмудовым, Д.У. Ашуровой и другими.

Как отмечал Д.С. Лихачев, концептосфера представляет собой сферу человеческого мышления, включающую совокупность концептов, формирующих ментальные образы.

В статье анализируется, как концептосфера «человечность» отражена в тюркских источниках. «Человечность» рассматривается как концепт, включающий в себя моральные качества человека, нормы гуманности и ценности. Исследуется, как это понятие представлено в древнетюркских письменных памятниках, его лингвистические и культурные аспекты.

Анализируется концепт «человечность» на основе различных бейтов произведения «Кутадгу билиг». Поэт определяет человечность как моральный критерий, подчеркивая необходимость формирования определенных качеств для сохранения своей человеческой сущности.

Также в статье рассматриваются древнетюркские источники, в частности, Древнетюркский словарь (ДТС) и «Девону Луғатит-Турк». В ДТС слово «человечность» приведено в значении «человеческая сущность» и трактуется как одна из ключевых категорий, выражающих моральные качества человека. В «Девоне» это слово не встречается, однако через объяснения в других источниках раскрывается значимость человечности в тюркской культуре, приводятся основные связанные с ней понятия: милосердие, совесть, справедливость, честность, благородство, щедрость, великодушие, терпение, скромность, знания и интеллект. Эти категории составляют элементы концептосферы «человечность» и определяют нормы гуманности.

Ключевые слова: концепт, концептосфера, человечность, лингвокультурный анализ, моральные ценности, справедливость, честность, благородство, щедрость, культурное наследие, язык и культура.

LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF THE CONCEPTOSPHERE “HUMANITY” IN TURKIC LANGUAGE SOURCES

Abstract This article presents a linguocultural analysis of the conceptosphere of “humanity” based on Turkic language sources from the 11th–12th centuries. The concept of the conceptosphere, its representation in the Turkic language, and its cultural significance are examined. The notions of concept and conceptosphere have been extensively studied by

scholars such as E.S. Kubryakova, V.I. Karasik, V.A. Maslova, A. Wierzbicka, and E.V. Vasilek. In Uzbek linguistics, these topics have been researched by O. Yusupov, A. Nurmonov, Sh. Safarov, N. Mahmudov, D.U. Ashurova, and others.

As noted by D.S. Likhachev, the conceptosphere is the sphere of human cognition, consisting of a collection of concepts that form mental images.

The article analyzes how the conceptosphere of “humanity” is reflected in Turkic sources. “Humanity” is considered a concept encompassing moral qualities, norms of humaneness, and values. The study examines how this notion is represented in ancient Turkic written monuments, highlighting its linguistic and cultural aspects.

The concept of “humanity” is analyzed through various verses from the work Kutadgu Bilig. The poet defines humanity as a moral criterion, emphasizing the necessity of cultivating certain qualities to maintain one's human essence.

Furthermore, the article explores ancient Turkic sources, particularly the Old Turkic Dictionary (DTS) and Devonu Lug‘atit-Turk. In the DTS, the word “humanity” is defined as “human nature” and is interpreted as one of the key concepts expressing moral qualities. Although this word is not explicitly mentioned in the Devon, explanations from other sources demonstrate the importance of humanity in Turkic culture. The article lists core concepts associated with humanity, such as compassion, conscience, justice, honesty, generosity, magnanimity, patience, humility, knowledge, and intelligence. These concepts form the structural components of the “humanity” conceptosphere, defining the norms of humaneness.

Keywords: concept, conceptosphere, humanity, linguocultural analysis, moral values, justice, honesty, generosity, cultural heritage, language and culture.

KIRISH

Til nafaqat aloqa vositasi, balki millatning madaniy merosi, dunyoqarashi va ijtimoiy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim omildir. Har bir jamiyatning axloqiy va ma’naviy qoidalari tilda o‘z ifodasini topadi va avloddan-avlodga yetkaziladi. Shu jihatdan, konsept va konseptosfera tushunchasi til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini tushunishda asosiy ilmiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Ushbu tushuncha D.S. Lixachyov tomonidan inson tafakkurining konseptual doirasi sifatida izohlangan bo‘lib, u millat madaniyati va dunyoqarashi bilan bog‘liq konseptlar majmuini o‘z ichiga oladi.

Turkiy xalqlarning axloqiy qadriyatlari, ular shakllangan tarixiy-madaniy jarayonlar til manbalarida o‘z aksini topgan. Ayniqsa, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg‘u bilig", Mahmud Koshg‘ariyning "Devonu lug‘atit-turk" hamda "Drevnetyurkskiy slovar" (DTS) kabi qadimiy yodgorliklarda “odamgarchilik” konseptosferasining turli konseptlarda ifodalanishi kuzatildi.

Ushbu manbalarda insoniy fazilatlar, ijtimoiy hamkorlik tamoyillari va axloqiy me’yorlar turkiy madaniyatning asosiy tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tilshunoslikda “konsept” va “konseptosfera” til va madaniyatga bog‘liq tushuncha sifatida ham alohida tadqiqot mavzusiga aylandi.

Bundan tashqari, konseptga doir fikrlarni tilshunos olimlardan Ye. S. Kubryakova, V.I.Karasik, V.A.Maslova, so‘zning konseptual shartlanishi yuzasidan A.Vejbitskaya, Ye.V.Vasileka, R.M.Gaysina, G.F.Gacheva, B.A. Drozdov, YE.P.Lisitskaya, V.I.Nevoyt, J.P.Sokolovskaya, o‘zbek tilshunoslaridan: O‘.Yusupov, A.Nurmonov, Sh.Safarov, N.Mahmudov, D.U.Ashurova, A.E.Mamatov, B.R.Mengliyev, Z.T.Xolmonova, D.Xudayberganova, Sh. Usmonova, N.S.Sayidrahimova, I.Tursunovlarning tadqiqotlarida kuzatish mumkin.

V.I.Vernadskiyning «noosfera» va «biosfera» terminlaridan ilhomlanib, konseptosfera terminini fanga kiritgan.[1] D.S.Lixachëvning fikricha, konseptosfera bu – fikrlash doirasi bo‘lib, mental tasvirlardan iborat konseptlarning majmuidir. Millat tilining konseptosferasi qanchalik boy bo‘lsa, milliy madaniyat ham shunchalik boy bo‘ladi. [2]

Kontseptsiya qanchalik boy bo‘lsa, undan foydalanuvchi shaxsning ijtimoiy sinfi, kasbiy faoliyati, oilaviy va shaxsiy tajribasi ham shunchalik keng bo‘ladi. Umuman olganda, shaxsning so‘z boyligi hamda tilning ochib bera oladigan imkoniyatlari D.S. Lixachev tomonidan "kontseptsiya sohalari" deb ataladi [2].

Milliy tilning kontseptual doirasi qanchalik boy bo‘lsa, uning yaxlitligi va ifoda imkoniyatlari ham shunchalik keng bo‘ladi.

Har qanday xalqning madaniyati uning adabiyoti, folklori, ilm-fani, tasviriy san’ati va dini bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu butun tarixiy tajribasini aks ettiradi.

Tilning kontseptual sohasi mavjud ekan, u doimo o‘zining adabiyoti va madaniy tajribasi bilan boyib boradi. Shu sababli, kontseptsiya sohasining shakllanishida yozuvchi va shoirlar muhim o‘rin tutadi, chunki ular folklor, kasbiy jargonlar va ijtimoiy qatlamlar tili orqali yangi tushunchalarni yaratadilar. Tilning kontseptual sohasi asarlar nomlaridan tortib, ulardagi tushunchalar tizimigacha o‘z ichiga oladi. Shu boisdan, tilning kontseptual sohasi aslida madaniyatning kontseptual sohasi bilan chambarchas bog‘liqdir.[3]

Til boyligi nafaqat lug‘at tarkibi va grammatik imkoniyatlar bilan, balki uning kontseptual dunyosi va madaniy qatlamlari bilan ham belgilanadi.

Tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlik madaniyat darajasi, ijtimoiy mavqe va shaxsning individualligi bilan belgilanadi. Shu bois, bir kontseptual soha boshqasi bilan uzviy bog‘lanib, birini toraytirishi yoki kengaytirishi mumkin. [2]

“Konsept” terminiga M.Zokirov, R.Majidova, Sh.Sultonovlarning “O‘zbekcha-ruscha-inglizcha lingvistik atamalar muxtasar lug‘ati” deb nomlangan lug‘atida quyidagicha: konsept (<lot. conceptus - tushuncha). 1.Kognitiv tilshunoslikda: inson ongining mental va ruhiy imkoniyatlari, uning bilimi va tajribasini aks ettiruvchi axborot tizimi birligi.

2. Lingvokulturologiyada mentallik xususiyatiga hamda lisoniy ifodaga ega bo‘lgan, etnomadaniy o‘ziga xoslik bilan ajralib turuvchi jamoa ongi birligi.

3. Psixodringvistikada: insonning bilish va muloqot faoliyatida yuzaga keladigan, uning ruhiyati qonuniyatlariga bo‘ysunuvchi harakatchan perseptiv-kognitiv-affektiv tuzilma deb izoh berilgan.[3]

Aynan shu manbada konseptosfera (<lot. conceptus – tushuncha + lot. sphaere-koptok, yadro). kategoriyalashtirilgan, qayta ishlangan, standartlashtirilgan madaniy konseptlarning xalq ongida aks etgan majmui, konseptual maydon esa -umumiy mazmuniy unsur vositasida bog‘langan, pog‘onaviy tuzilishga ega bo‘lgan konseptlar zanjiri deb berilgan.[3]

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur maqolada XI-XII asr turkiy til manbalari tilida uchragan “odamgarchilik” konseptosferasi va uning konseptual maydonida yuzaga chiqadigan konseptlar tahlilga tortildi.

Odamgarchilik - insonning axloqiy fazilatlari, bir-biriga munosabati, insoniylik me‘yorlari va qadriyatlar bilan bog‘liq ezgu tushunchalarni bir joyga jamlaydi. Shu jihatdan bu konseptosfera axloqiy qoidalar, madaniy me‘yorlar va ma‘naviy meros asosida shakllanadi. “Odamgarchilik” konseptosferasini “Devonu lug‘atut turk”, “Qutadg‘u bilig”, DTS kabi manbalari matnlari asosida tahlilga tortdik.

DTS (Древнетюркский словарь)da odamgarchilik so‘zining izohi shunday keltirilgan:

Kişilik- человечность- odamgarchilik, kişilik üçün at urundi kişi (QBN 75₁₀, DTS 310)

Qani qanča bardı kişilik, esiz (Yug.V₃₈₆)

“Devon”da esa bu so‘z uchramadi.

Yusuf Xos Xojibning "Qutadg‘u bilig" asari turkiy adabiyotning yirik asarlaridan biri bo‘lib, u nafaqat davlat boshqaruvi, balki inson ma‘naviyati va axloqi haqidagi keng qamrovli ta‘limotni o‘z ichiga oladi. Asarda odamgarchilik tushunchasi keng ma‘noda talqin qilinadi va inson kamolotining asosiy shartlari sifatida bir necha muhim fazilatlar ta‘kidlanadi.

Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” asarida, avvalo, odamgarchilikni axloqiy mezon sifatida belgilab berganligini quyidagi bayt tahlilidan yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Ajun boldi ersə tēpy ǝndisi

Kishikə kishilik bolur belgysi

Olamning siyosat, nizom(lari) mavjud bo‘lsa

Odam uchun odamgarchilik uning belgisi bo‘ladi (5640)

Shoir bu baytida inson axloqiy, ma‘naviy qadriyatlarining jamlanmasini o‘z odamgarchiligi orqali voqelanishini ta‘kidlaydi hamda odamgarchilik har bir kishi uchun asosi mezon bo‘lishi zarurligi haqida so‘z yuritadi.

Bundan ko‘rinadiki, odamgarchilik konseptosferasida mehr-oqibat, insof, adolat, halollik, muruvvat, saxovat, hamdardlik, himmat, sabr, kamtarlik, bilim va zakovat kabi

Yana bir baytida inson halol va to‘g‘riligi axloqiy fazilatlari orqali baholanishi, uning qadr-qimmatining noyob ekanligi ayni odamgarchilik vositasida yuzaga chiqishini bildiradi.

Qiz ermas bu yalnuq kishilik qiz-ul

Az ermas bu yalnuq kənilik az-ul (851 QB) (DTS 449- bet)

Odam qimmat emas, odamgarchilik qimmatli

Odam ozi (noyob) emas, to‘g‘rilik ozi (noyob)

Muallif keyingi baytda insonlarning bir- biriga yordam berishini yaxshilik deb nomlaydi hamda yaxshilik qilgan odamga yaxshilik bilan javob qaytarish zarur deb hisoblaydi.

Kişilik qıl- kişilik qılurqa anut (QBN 131₅, DTS 310)

Odamgarchilikni mezon sifatida belgilab olinishi bejiz emas, chunki bu konsept bir qancha fazilatlarni o‘z ichiga oladi, jumladan, insonning eng oliy axloqiy fazilatlaridan: mehr-oqibat, insof, adolat, halollik, muruvvat, saxovat, hamdardlik kabi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Bu tushuncha nafaqat individual shaxsning axloqiy fazilatlarini ifodalaydi, balki jamiyatdagi munosabatlar, ijtimoiy hamkorlik va insoniy qadriyatlar tizimining asosiy poydevorlaridan sanaladi.

XI-XII asr turkiy til manbalaridan “Qutadg‘u bilig” asarining mohiyati ham aynan jamiyatning ijtimoiy munosabatlarida insoniyat qadr- qimmatini va uning ahamiyatiga bag‘ishlangan deyish mumkin.

Kishilikni qodma ey asli kishi

Kishilik qilu tur kishikə tushī

Ey asl kishi, odamgarchilikni qo‘yma

Kishilarga doim odamgarchilik qilib tur (1574)

Pandnoma davlat boshqaruvchisiga axloqiy mezon sifatida qo‘llanma vazifasini o‘taydi, da odamgarchilik bilan nom qozonish, bu xalqning e‘tiboriga tushish darkorligi uqtiriladi.

Kishi bol kishikə kishilik qilin

Kishi ati egdi ozungə alin

Odam bo ‘l, odamga odamiylik qil

Odam (degan) otni, maqtoyni o ‘zingga olgin. (5662)

Quyidagi baytda esa odamgarchilik axloqiy mezon sifatida odam leksemasi bilan tenglashtirilgan, insoniylik xususiyatiga ega bo‘lmaganlarga mol leksemasi orqali hayvonga nisbat berilgan.

Yuri ud atanma kishilik qil-a

Kishikə kishi bol kishilik bil-ə (1577)

Kel mol degan nom olma, odamgarchilik qil

Odamga odam bo‘l, odamgarchilikni bil

Odamgarchilik leksemasi barcha manbalarda kishilik variantida uchraydi. Kishilik so‘zi manbalar tilida “odamgarchilik” konseptosferasini ifodalab, himmat, sabr, kamtarlik, bilim va zakovat kabi fazilatlar tarkibiga oladi.

Kishilikka himmat muruvvat kerək

Kishi qadri himmat muruvvat tənji [405 . 120]

Odamgarchilikning yana bir muhim xususiyati sabr-toqat va bag‘rikenglikdir. Yusuf Xos Xojib inson har qanday holatda ham sabrli bo‘lishi va boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Bu g‘oya Ozg‘anmish obrazi orqali ko‘rsatilgan. Sabrli va mulohazakor inson hayotda ko‘p narsaga erishishi mumkin.

Səringil Sərinmak ərən qılqı –ul [1309]

Sərinmə bolur er masak kökkə yol

Sabr qilgin sabr qilmoq kishilarning odati

Sabr qilsa kishi bamisoli ko ‘kka ham yo‘l topadi

Muallif inson komil bo‘lishi uchun kamtarlikni o‘zlashtirishi lozimligini aytadi. Kamtar va halol inson jamiyatda hurmatga sazovor bo‘ladi. Asarda bu g‘oya Fon (kamolot) timsoli orqali ifodalangan. Haddan tashqari kibr va manmanlik insonni halokatga olib kelishi ta’kidlanadi.

Mənjə təgsə bəglik ulug ‘luq oqa

Kichiglik anuq tut özyn bolg‘uqa 539 -139 bet

Senga beglik va ulug‘lik merosi nasib bo‘lsa

O‘zingni kichik-kamtar tutishni aniq maqsad qilib qo‘y

Yusuf Xos Xojibning "Qutadg‘u bilig" asari tilida odamgarchilik konseptosferasi bir qancha konseptlarni o‘z ichiga olgan. Asardagi odamgarchilik konseptosferasi tarkibida adolat, aql, kamtarlik, sabr va saxovat kabi insoniy fazilatlar odamgarchilikning ajralmas qismlari sifatida ta’riflangan. Asarning tili lingvomadaniy jihatdan tahlilga tortilganda, turkiy xalqlar nazdida eng muhim asos sifatida odamgarchilik turishi, uning mohiyatida esa adolat va insonparvarlik yotganini kuzatdik. Yuqorida keltirilgan manbalarining barchasida “kishilik” yani “odamgarchilik” konseptosferasi tarkibida: Odam odamga yaxshilik qiladi., odam yaxshilik qilganga yaxshilik qiladi, odam yaxshilik qilgan odamdan yuz o‘girmaydi, odamga yordam bera oladigan paytida qochmaydi, odam yomonlik qilgan odamga yaxshilik qiladi, odamiylik ulug‘ himmatli bo‘ladi, xizmatda halol bo‘ladi, tuz-non haqiga xiyonat qilmaydim, yaxshilik qiluvchini duo bilan yodga oladi, odam saxovatli bo‘ladi degan nasihatlarini “Kishilik” konseptosferasi orqali yetkazgan.

XULOSA

XI-XII asr turkiy til manbalarida uchraydigan “odamgarchilik” konseptosferasi lingvomadaniy tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, odamgarchilik inson axloqiy fazilatlarini, madaniy me’yorlari va qadriyatlarini bilan bog‘liq bo‘lib, bu tushuncha turkiy xalqlarning tilida va madaniyatida chuqur o‘rin egallagan.

“Qutadg‘u bilig” asarida insonning insoniylik qoidalariga amal qilishi, adolat, mehr-oqibat, insof, halollik, muruvvat, saxovat, sabr va kamtarlik kabi fazilatlarini o‘zida mujassam etishi jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti hisoblanadi. Asarda insonning to‘g‘riligi va halolligi uning qadr-qimmatini bilan chambarchas bog‘liq ekani ta’kidlanadi.

“Devonu lug‘atit-Turk” va “Drevnetyurkskiy Slovar” (DTS) kabi manbalar asosida odamgarchilik tushunchasi tahlilga tortildi. DTSda bu so‘z “kishilik” shaklida izohlangan bo‘lsa, “Devon”da bevosita bu atama uchramadi, biroq unda keltirilgan boshqa tushunchalar orqali odamgarchilikning muhimligi yoritilgan.

Odamgarchilik faqat individual axloqiy fazilat emas, balki butun jamiyatning ma’naviy tamoyillarini belgilovchi mezon hisoblanadi. U til orqali shakllanib, madaniy meros vositasida

avloddan-avlodga o‘tadi. Shuning uchun ham til boyligi faqat grammatik yoki leksik birliklar bilan emas, balki uning konseptual maydoni va madaniy qatlamlari bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Вернадский В. И. Несколько слов о ноосфере // Труды по философии естествознания. – М.: Наука, 2000. – С. 308-315.
2. Лихачев Д. С. Концептосфера русского языка // Изв. АН. Серия литературы и языка. Т. 52. № 1. – М., 1993. – С. 39.
3. Zokirov M., R.Majidova, Sh.Sultonova O‘zbekcha-ruscha-inglizcha lingvistik atamalar muxtasar lug‘ati Toshkent– 2016 –B.10
4. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Саодатга йўлловчи билим). Каримов Қ. Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. –Тошкент: Бадиий адабиёт, 1971. -158 б.
5. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘ati-t- turk”. Qosimjon Sodiqov nashri. – Toshkent:G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2017.
6. Ahmad Yugnaki. Hibat ul-haqoyiq – Toshkent: Sharq, 1995.
7. Древнетюрский словарь Издательство «Наука» Ленинградский отделение –Ст.47. 71
8. O‘zbek tilining izohli lug ‘ati. III,IV, V jildlar. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2023-yil. 570-571 betlar
9. Абдужаббарова Ф.А. “Қутадғу билиг”даги шахсга хос сифат лексемалар тадқиқи.Филол. фан. ном. ... дисс. –Тошкент, 2011. –Б.43.
10. Бахронова Д. Оламнинг лисоний манзараси тасвирида концепт ва концептосфера. Хорижий филология №3, 2019 йил –В. 65.